

## **MAQOLLARDAGI KONTEKSTUAL ANTONIMIYA**

*Sharipova Ra’no Akmalovna*

*BuxDPI talabasi.*

**Annotatsiya.** O‘zbek tilining emotsional kuchi, jozibasi xalqimizning maqol, matallarida o‘z aksini topgan. Maqollardagi qadriyat tushunchalari, ko‘pincha, antonim so‘zlar bilan ifodalangan. Antonimik xususiyatga ega bo‘lgan maqollardan foydalanish ularning ta’sir doirasini kengaytiradi. Ushbu maqola aynan shunday maqollar tahliliga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** maqollar, antonim so‘zlar, oppozitsiya, leksema, kontekstual antonimiya, affiksal antonimiya, semasiologiya, lingvistik tahlil.

Maqol — xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba’zan ko‘p ma’nolilik, majoziy ma’nolarga boylik kabi xususiyatlar harakterli. Maqollarda antiteza hodisasi ko‘p uchraydi ("Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l" va boshqalar).

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab maqol Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o‘zbek xalqi orasida turli vari-antlarda ishlataladi. Shuningdek, maqol Koshg‘ariy

asarida "Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin"; "Odam olasi ichida, mol olasi tashida" kabi. Biz maqollarni hayotda juda kop ishlatalamiz to'grimi!

Maqollar ba'zan matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, hikmatli maqol, donishmandlar so'zi, otalar so'zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda, xattoki, g'oyat katta. Matalda narsa tasviri, uning harakteristikasi beriladi, maqolda esa to'la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi. So'z ko'rki - maqol!

Maqollardagi kontekst — og'zaki yoki yozma nutq (matn)ning nisbatan tugal qismi. Kontekst o'z tarkibidagi so'zlar yoki iboralarning ma'nolarini aniqlashga imkon beradi. U poetika bilan bog'liq bo'lib, yozuvchi mahoratini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: Kripto so'ziga kontekstli misollar: Kriptovalyuta, kriptologiya, kriptogirafiya, kriptotahlil

Borliqdagi barcha hodisalar o'rtasida oppozitsiya mavjud. Qarama-qarshiliklar olamni anglashda asosiy mezonlardan biridir. Bu hodisa tilshunoslikda antonimiya nomi ostida talqin qilinadi. Antonimiya - til birliklarining semantik jihatdan o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lish hodisasi.<sup>1</sup> Antonim so'zlar til birliklaridan biri bo'lib, badiiy adabiyotda, publisistikada, shuningdek, maqol va matallarda keng qo'llaniladi. Maqollar insonlar o'rtasida muloqot jarayonida ma'lum bir voqelikka nisbatan bildirilayotgan fikrni ifodalaydi, ularda antonimlardan foydalanish lingvistik tahlilning, antonimiyaga oid bir qator lug'atlar, izlanishlarning oshishini ko'rsatadi. Antonimlarning maqollar tarkibida uchrashini tahlil qilsak, bunday so'zlar bir qancha ma'nolarni qamrab olishini ko'rshimiz mumkin.

Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar,

Yomon gap bilan musulmon dinidan.

Ushbu maqolda “yaxshi”, “yomon” so'zлari antonimlik hosil qilmoqda. Maqolda ishlatilgan “ilon” obrazi aslida xavfli hayvon bo'lsa-da, bu obraz tagida salbiy xarakterli insonlar qo'shtirnoq ichiga olinadi. Maqoldagi “yaxshi” so'zining izohli lug'atda bir qancha ma'nolari keltirilgan, mazkur maqolda uning - ijobiy sifatga ega

bo‘lgan, biror talabga to‘la javob beradigan, kishiga yoqadigan, ma’qul bo‘ladigan<sup>2</sup> ma’nosi ifodalangan. Bunga zid ma’noda “yomon” so‘zining salbiy, noxush, odob doirasiga sig‘maydigan ibora ma’nolari ifodalangan. Umuman, ushbu antonim juftlik ishtirok etgan maqollar talaygina:

Yaxshi oshini yer, Yomon - boshini;  
Yaxshi bilan yo‘ldosh bo‘lsang, yetasan murodga,  
Yomon bilan yo‘ldosh bo‘lsang, qolasan uyatga;  
Yomon yashar, yaxshi qaqshar;  
Yaxshilikni unutma, yomonlikni ko‘zda tutma;

Yaxshi o‘zar, yomon to‘zar -shu va boshqa maqollarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Achchiq haqiqat shirin yolg‘ondan yaxshiroq. Mazkur maqolda antonim so‘zlar sifatida “achchiq”, “shirin” so‘zlari qo‘llanilgan. “Achchiq” va “shirin” so‘zlari asli sifat so‘z turkumiga tegishli bo‘lib, maqolda antonim juftlikni hosil qilmoqda. Maqolda, asosan, leksemalarning ko‘chma ma’nosi ifodalangan bo‘lib, haqiqat har doim hammaga ham xush kelavermagani uchun uni achchiq ya’ni kishiga qattiq tegadigan, noxush bo‘lsa-da, kishiga huzur baxsh etadigan, lekin tag zamiri asliyatdan yiroq shirin yolg‘ondan ko‘ra afzalligi ifodalangan. Shuni ta’kidlash kerakki, “achchiq”, “shirin” so‘zlari nutqimizda keng qo‘llanilib, o‘z va ko‘chma ma’nolarda ham qarama-qarshiliklarni ifodalab keladi. Shuningdek, ushbu paremiologik birligimizda kontekstual antonimiya hodisasi ham aks etgan. Kontekstual antonimiya o‘zaro zid ma’no ifoda etmagan leksemalarning ma’lum konteks ichida so‘zlovchi yoki muallif tomonidan antonimlik munosabatlariga kiritilishidir.<sup>3</sup> Yuqorida keltirilgan maqol tarkibidagi “haqiqat”, “yolg‘on” so‘zlari tilda aynan antonimlar emas, ammo qo‘llanish doirasida zid ma’nolarni ifodalab, kontekstual antonimiya hosil qilgan.

Nodon do‘stdan dono dushman afzal. Ushbu maqoldagi “do‘st”, “dushman” so‘zlari o‘zaro bir grammatik turkumga mansub bo‘lib, nutqda faol qo‘llaniladigan antonim so‘zlar hisoblanadi. Shuningdek, konteksdagi “nodon” va “dono” leksemalari ham antonimlik hosil qilmoqda. Ilm-ma’rifatdan xabari yo‘q, ongi past,

qoloq do'stdan aql-zakovatli, oqil dushman afzalroq degan fikr ilgari surilgan. Insonda nodon do'st bo'lsa, u, albatta, pand berishi mumkin, har qalay foyda bermaydi, lekin dono dushmanidan yomonlik kutilsa-da, undan ibrat, tajriba olish mumkin. Zero, "Aqlli dushman bilan kengashish mumkin, lekin johil do'sting maslahatidan qochish kerak".

Shuningdek, maqollarda affiksal antonimiya ham ko'rishimiz mumkin. Affiksal antonimiya - qo'shimchalar o'rtasidagi zid ma'nolilik. Asosan, sifat so'z turkumidagi qo'shimchalarda ko'p uchraydi. Masalan:

Bilimlining bilimi yuqar,

Bilimsizning nimasi yuqar. Bilimlining leksemasidagi -li affiksi asosdan anglashilgan narsaga egalik ma'nosini, bilimsizning so'zi tarkibidagi -siz affiksi shu narsaga ega emaslikma'nosini ifodalaydi. Ya'ni -li va -siz affikslari o'zaro qaramaqarshi qo'yilmoqda. Tilimizda bunday affiksal antonimiya hodisasi uchraydigan xalq maqollarimiz miqdori salmoqli:

Elli yer - bozor,

Elsiz yer - mozor;

Mehnatli non - shakar,

Mehnatsiz non - zahar.

Mehnatli osh osh bo'lur,

Mehnatsiz osh - tosh.

Mard o'zar, nomard to'zar.

O'zbek tilshunosligida antonimiya hodisasi haqidagi ilk ilmiy qarashlar S.Mutallibov, S.Usmonov kabi olimlarning maqolalarida o'z aksini topgan.

Xulosa qilib aytganda, har bir millatning o'ziga xos madaniyat asosida maqollari ham shakllanadi va shu millatning madaniy merosiga aylanadi. Maqollarda asosan o'sha xalqning urf - odatlari, an'analari, quonchi va qayg'usi o'z aksini topadi. Boshqa xalqlarning maqollari tarjima qilinganda, milliylikka alohida e'tibor berilish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga xalqlar o'rtasida do'stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, o'zbek xalq maqollari tarkibidagi

antonimlarning leksik-semantik, funksional xususiyatlarini o'rganish shu xalq madaniyati, dunyoqarashi, qadriyatlari haqida muhim ma'lumotlar berishi bilan, qolaversa, o'zbek tili leksikologiyasi, semasiologiyasiga doir bir qancha xulosalar bera olishi bilan ham ahamiyatlidir. Shuningdek, antonim, sinonim lug'atlarni va leksemalarning semantik taraqqiyotiga oid bilimlarni boyitishda muhim manba o'laroq xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.-ТОШКЕНТ: “ЎЗБЕК МИЛЛИЙ ЭНЦИКЛОПЕДИЯСИ” ДАВЛАТ ИЛМИЙ НАШРИЁТИ.
2. Раҳматуллаев Ш, Маматов Н, Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати.-Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
3. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик.-Жиззах. 2006.
4. Komilova G. “Antonim so‘zlar vositasida qadriyat va bahoning ifodalanishi” maqolasi.
5. <https://azkurs.org>.
6. <https://islom ziyouz.com>.
7. [@savodxon.uz](http://savodxon.uz). izohli lug'at.